

## TASVIRIY SAN'ATDA RANGTASVIRNING AHAMIYATI VA RANG BILAN ISHLASH USULLARI

**Eshpulatova Nargiza Nosir qizi**

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

San'atshunoslik kafedraasi 1- kurs talabasi

nargezaeshpulatov@gmail.com

***ANNOTATSIYA.** Bu maqola tasviriy san'atning o'ziga xos xususiyatlari va uning insonlar uchun muhimligini ilmiy ravishda izohlaydi. Tasviriy san'atning yo'nalish va turlari, xususan, Rangtasvir uslubining ahamiyati va ishlash tartibi, borliqni yorqinlik ila ifodalash haqida bayon etadi. Maqola, ko'p qo'llanilgan adabiyotlardan foydalanib, maqola mavzusini ilmiy ravishda muhokama qiladi*

**Kalit so'zlar:** san'at, rassom, estetika, malaka, kreativlik, nazariy bilimlar

**KIRISH.** San'at — ijtimoiy ong va inson faoliyatining o'ziga xos shakli. San'at hozirgi zamon ijod mahsuli emas, balki qadimiy tarixga ega. Qadimdan jamiyat hayotining ilk yillaridan boshlab, ularning mehnat faoliyati uning rivojlanishi bilan asrlar davomida vujudga kela boshlagan. San'atning asosiy vazifa va maqsadi dunyoni badiiy o'zgartirish, insonlarga kayfiyat bag'ishlashdir. Axloqiy tasviriy san'at fani bugungi kunda kelajak avlodlarning aqliy, manaviy, kreativ fikrlaydigan va shu bilan birga talabchan bo'lib kamol topishiga ko'makchidir.

Rangtasvir — tasviriy san'at turi, biror qattiq yuzada rangli ashyolarda, masalan, bo'yoqlar yordamida yaratiladigan badiiy asar. Rangli voqelikni badiiy tasvirlash va talqin qilish muhim ijtimoiy mazmun va rangbarang g'oyaviy vazifalarga ega. Rangli asarning g'oyaviy mazmuni uning mavzu va syujetida mujassamlashadi.

Rasmning muhim tasviriy va ta'sir vositasi — Rang. Rang orqali borliq yoki hayoliy dunyoni ko'rinarli shakllarda tasvirlaydi, makonning cheksizligini, undagi narsalarning rang-barangligini ko'rsatishi, o'y-xayollarni aks ettirishi mumkin. Rangning tasviriy ifoda vositasi va ishlash uslubi — ishlatiladigan rang, quollar, qog'oz yuzasi silliq yoki g'adirdurlikiga qarab asar ko'rinishi turlicha aks ettirilishi mumkin. Rangtasvir turiga moybo'yoq va boshqa suvda eruvchi ranglar bilan materiallariga quyidagilarni misol keltirishimiz mumkin: ishlangan manzara, turmush voqealari, jang manzaralari, tarixiy voqealar, natyurmortlar, odamlarning to'liq va yarim qomatlari, moybo'yoq, akvarel, guashda ishlangan devoriy rasmlar kiradi.



Asar dastlab ijodkor tasavvuri va ongida paydo bo'lgan g'oyani qoralamasini qalamda qog'ozda ishlab olinadi. Shundan so'ng tasvir o'rni belgilab rasmi ishlanadi. Rang berishda esa suyultirilgan rang bilan boshlab ko'pqatlamli yoki bir qo'yishda kerakli rangni bir qatlamli qo'yish mumkin. Rasm ishlanish sharti ikki — yassi va hajmli uslubga ajratish mumkin: birinchisida tasvir nursoyasiz yaxlit shaklda ishlanadi, hajmlida esa tasvir nursoya yordamida tasvirlanadi. Bunda rasm rangga boy bo'lib, unda ranglarning barcha tuslarini his etish, tushuvchi nurlarning rangini ham, qaytgan nurlarning refleksini ham ko'rishimiz mumkin.

*Quyida moybo'yoqda ishlangan suratlarni keltirib o'tamiz:*



Akvareldan tashqari- guash, moybo‘yoq, pastel, sous, sanginada ham ishlash mumkin. Guash - bu bo‘yoq shaffof emas, u zich, qurishi bilan usti xirasimon tusga kiradi. Bo‘yoqni mo‘yqalamga yaxshi shimib olinishi, tekis iz qolmasligi, quriganda yorilmasligi kerak. Tarshon, goznak, xolst va boshqa materiallardan rangtasvirda ko‘p foydalaniladi

Rangtasvir o‘zining ishlanishi, vazifasiga qarab —rangtasvir, bezak san’ati, bezash, dekoratsiya, miniaturaga bo‘linadi. Yo‘nalishiga qarab esa bir qator janrlarga: tarixiy janr, maishiy janr, portret, manzara, natyurmort va boshqalar.

## XULOSA

Xulosa qilib shuni aytishimiz kerakki, tasviriy san’at o‘ziga xos takrorlanmas san’atdir. Rangtasvir - real borliqni, hayotni, voqea-hodisalarni bo‘yoqlar vositasida mato, qog‘oz, taxta, kartonga tasvirlash demakdir. Uning barcha yo‘nalish va usullari katta ahamiyatga ega. Bugungi kunda akvarelda rang tasvirlash texnikasining rivojlangani respublikamizda namoyish etilayotgan ko‘rgazmalardagi akvarelchi rassomlar M.Sodiqov, D.Mursalimov asarlarida ko‘rishimiz mumkin. Bu rassomlar rangtasvir usuliga katta ahamiyat berishadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar;**

**Rangtasvir. Rang san`ati va tarixi**

# ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-SENTABR

ANDIJON, 2024

- 2022 / A. About Manom Melodies Adapted for Orchestra of Uzb Folk Instruments  
интернационал журнал on Finalce Sustainable Development ,2(11),28-30 Rangtasvir  
uslubining tarixiy rivojlanish jarayoni va uning joriy davriy muhitdagi o'rni